XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-mart VII-7-60-3-0-K/25 Jizzax viloyati

Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-033-3-0-K/24-sonli qarorining 1-ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasi 2-bandi, Jizzax viloyati soliq boshqarmasining 2025-yil 19-fevraldagi 25-09933-sonli xatiga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sharof Rashidov tumani hokimligining 2025-yil 14-fevraldagi 01-132-sonli Sharof Rashidov tumani hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq 1 ga yer maydoni uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi koeffitsiyentni qo‘llash bo‘yicha taklifi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-033-3-0-K/24-sonli qarorining 1-ilovasidagi Sharof Rashidov tumani uchun “Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari 1 ga uchun” 0.61 koeffitsiyent, 24 156 000 (yigirma to‘rt million bir yuz ellik olti ming) so‘m etib belgilansin.

3. Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi “Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi Qulpisar mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan tanlangan yer maydonining soliq stavkasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VII-4-7-3-0-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashiga:

ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining 2025-yil 10-fevraldagi “Xalq deputatlari Sharof Rashidov tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-012-3-46-K/24-sonli qarorining ilovasiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qarorini bekor qilish;

xalq deputatlari Sharof Rashidov tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Sharof Rashidov tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2025-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida”gi VII-3-012-3-46-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vazifasi topshirilsin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binoqulov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (U.Adilov), O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Jizzax viloyat teleradiokanali Davlat muassasasi (E.Shermonov), “Jizzax haqiqati”-“Джизакская правда” gazetalari tahririyati (B.Nazarov) qarorni rasmiy nashrlarda va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Azimov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi

SHUKUROV PARDA
XXX